

TIJORAT BANKLARIDA MHXSNI QO'LLASH NATIJALARINI TAHLIL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
Akademiyasimagistri
Raxmonova Maftuna Qurban qizi

Anotatsiya Ushbu maqolada Respublikamiz tijorat banklarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) tahlilqilishvauni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va shu orqali banklarda buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirilgan.

Tijorat banklarida Moliya Hisobotlari va Aktivlar Ustida Nazorat (MHXS)ni tahlil qilish va uni takomillashtirish mavzusi moliya sohasida dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot, banklar faoliyatining samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun MHXSni yangi metodologiyalar va texnologiyalar yordamida yaxshilash strategiyalarini ko'rib chiqadi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy masalalar yoritiladi:

- MHXSning zamonaviy talablari va uslublari.
- Tijorat banklaridagi moliyaviy tahlil metodlarini baholash.
- Texnologik innovatsiyalarni qo'llash orqali banklar faoliyatini yaxshilash imkoniyatlari.
- O'zbekistondagi tijorat banklarining MHXSni rivojlantirish borasidagi tajribalarini o'rganish.

Natijada, ushbu ish tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi, banklarga raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, bank hisobi, buxgalteriya hisob siyosati, hisob tamoyillari, buxgalteriya balansi, balans, moliyaviy hisobot, MHXS (Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari), Moliyaviy hisobotlar, Tahlil, Transformatsiya, Raqobatbardoshlik, Axborot texnologiyalari, Shaffoflik, Investitsiya, Monitoring, Auditorlik, Strategik rejalashtirish, Ichki jarayonlar, Sifatni oshirish, Xalqaro tajriba, NatijalarTavsiya va takliflar, Moliya bozorlariga integratsiya, Boshqaruv qarorlari.

ANALYSIS OF THE RESULTS OF IMPLEMENTATION OF MIS IN COMMERCIAL BANKS AND ITS IMPROVEMENT

Annotation In this master's thesis, the analysis and development of suggestions for improving the International Standards of Financial Reporting (IFRS) in commercial banks of our Republic, thereby improving accounting and reporting in banks.

The topic of analysis and improvement of Financial Statements and Control over Assets in commercial banks is of urgent importance in the financial sector. This study examines the strategies to improve the MFRS using new methodologies and technologies to increase the efficiency of banks' operations and ensure financial stability.

The research covers the following main issues:

- *Modern requirements and styles of MHXS.*
- *Evaluation of financial analysis methods in commercial banks.*
- *Possibilities to improve banks' activities through the use of technological innovations.*
- *To study the experiences of commercial banks in Uzbekistan in terms of development of MHSS.*

As a result, this work provides practical recommendations on the analysis and improvement of the operations of commercial banks, necessary for banks to increase their competitiveness and ensure financial stability.

Keywords: International standards of financial reporting, bank accounting, accounting policies, accounting principles, balance sheet, balance sheet, financial reporting, IFRS (International Financial Reporting Standards), Financial reporting, Analysis, Transformation, Competitiveness, Information technology, Transparency, Investment, Monitoring, Auditing, Strategic planning, Internal processes, Quality improvement, International experience, Results, Recommendations and proposals, Integration into financial markets, Management decisions.

KIRISH

Banklar iqtisodiyotning muhim subyektlari bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligi va samaradorligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

MHXS (Moliya hisobotlari va aktivlar ustida nazorat): Bu tizim orqali banklar o'z faoliyatlarini tahlil qilib, samaradorlikni oshirish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasining barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir" (Mirziyoyev Sh.M. 2017).

MHXSlar mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni, jumladan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va mamlakatlarda investitsion muhitni yaxshilashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham kun sayin xalqaro standartlarni e'tirof etuvchi mamlakatlar soni oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ham MHXSgao'tishning o'ziga xos yo'lini tanladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-soni "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriyetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan, 2015-2018 yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlar yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazishi va aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi 2015 yilning 1 iyuliga qadar aktsiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish jadvalini tasdiqlanishi lozimligi belgilangan. Bundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrdagi PQ-2454-soni "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga asosan, aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitaliga 15 foizdan kam bo'limgan miqdorda xorijiy investorlarning ulushi jalb qilinishi lozimligi belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilishiga

to'g'ri keladi. Chunki, undan xorijiy investorlar aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviyyiy hisobotlarini to'g'ridan to'g'ri tushunishiga va ishonch hosil qilish lozimligiga erishadi.

Moliyaviy barqarorlik: Banklar o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda, MHXSni takomillashtirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Regulyatsiya va nazorat: Yangi moliyaviy qonunlar va regulyatsiyalar, banklar operatsiyalarini yanada oshkora va samarali qilishni talab etadi.

Texnologik rivojlanish: Zamонавиу texnologiyalar orqali banklarni analitik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishslash uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Analitik uslublar: Yangi analitik metodlarni joriy qilish orqali banklar faoliyatini nazorat qilish va tahlil qilish jarayonini avtomatlashtirish.

Ma'lumotlarni boshqarish: Big Data va AI texnologiyalaridan foydalanish orqali banklar faoliyatining samaradorligini oshirish.

Xodimlar malakasi: Xodimlarni doimiy ravishda o'qitish va ularning malakasini oshirish orqali xizmat sifatini yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida MHXS natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Dissertasiya maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- tijorat banklaridagi mavjud MHXS mohiyati va uning zaruriyatini ochib berish;
- tijorat banklarida MHXS talablarini tadqiq etish asosida uni takomillashtirish;
- MHXS natijalari tahlilining umumiyligi, uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarini takomillashtirish;
- MHXSga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq etish va ularni baholash;
- banklarda MHXSni shakllantirish yuzasidan amaliy tafsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bu borada MHXSni muvoffaqiyatli qo'llayotgan Hindiston tajribasiga e'tibor qaratamiz. Hindiston buxgalteriya hisobi standarti (IndAS) da hisob siyosati va uni shakllantirish masalalari xalqaro standart (MHXS) talablariga to'liq muvofiqlashtirilgan. Masalan, hisob siyosatiga berilgan ta'rif bilan MHXSda berilgan ta'rif o'rtasida deyarli farqli jihatlari mavjud emas: "Hisob siyosati – bu moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda sub'ekt tomonidan qo'llaniladigan o'zigaxos prinsiplar, asoslar, konvensiyalar, qoidalari va amaliyotlar" (Indian Accounting Standard (IndAS)). Булар нима

Mazkur standartda hisob siyosatini ochib berish bo'yicha talablar, bundan hisob siyosatidagi o'zgarishlarni ochib berishni istisno qilgan holatda, Ind AS 1 "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish"da o'rnatilishi belgilangan.

Yaponianing buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq: "Hisob siyosati - bu kompaniya boshqarish uchun moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalanadigan o'ziga xos prinsiplar va proseduralardir. Bunga buxgalteriya hisobining har qanday usullari, baholash tizimlari va axborotni oshkor qilish tartib qoidalari kiradi". Global pandemiya sharoitida Yaponiya Buxgalteriya Standartlari Kengashi (ASBJ) tomonidan 24-sonli "Hisob siyosatini yoritib berish, hisob siyosatidagi o'zgarishlar va xatolarni tuzatish" standartini qayta ko'rib chiqilganligi yuzasidan bayonot berildi (mazkur bayonot faqat yapon tilida mavjud) (ASBJ, 2020).

AQShning hisob siyosatini ochib berishga qaratilgan tamoyillarida (APB 22): “Kompaniyalarning hisob siyosati – bu buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan tamoyillariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzishdagi buxgalteriya hisobining aniq tamoyillari va usullari bo‘lib, bu kompaniyalarni boshqaruvida moliyaviy holat to‘g‘risida, pul mablag‘larning xarakati va moliyaviy natijalar bo‘yicha ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishga qaratiladi”. Mazkur tamoyilda moliyaviy hisobotlarni taqdim etuvchi kompaniyalar tomonidan qabul qilingan hisob siyosati uning moliyaviy holati, pul oqimlari va operasiya natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi alohida ta’kidlab o‘tiladi (APB 22 STATUS). Natijada, hisobotlarni taqdim etuvchilar iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda moliyaviy hisobotlarni qay darajada ahamiyatli ekanligi yoki uning samaradorligi asosan, hisob siyosatini to‘liq anglab etishiga va uni to‘g‘ri shakllantirishiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Xalqaro buxgalteriya hisobi amaliyotida hisob siyosati qo‘llashda xo‘jalik sub'ekti tomonidan konservativ va agressiv hisob siyosatiga ham ajratiladi.

Konservativ hisob siyosati xo‘jalik sub'ektining hisobot davridagi moliyaviy natijalarini kmaytirib ko‘rsatishga hamda keyingi davrlardagi moliyaviy natijalari va unga bog‘liq ko‘rsatkichlarni oshirib ko‘rsatishga qaratiladi. Hisob siyosatining bu ko‘rinishini tanlash xo‘jalik sub'ektlariga yillar davomida takomillashtirib, moliyaviy faoliyati tendensiyasini oshishini ko‘rsatishga imkon beradigan yanada barqaror yondashuv hisoblandai. Eng muhim, konservativ hisob siyosati investorlar uchun ijobjiy holatdir, sababi ular xo‘jalik sub'ektini yillar kesimida faoliyatini (biznesini) yaxshilanib borayotganligi haqida ma'lumotlargaega bo‘ladi.

Agressiv siyosatini tanlagan xo‘jalik sub'ekti o‘tgan faoliyatigayuqori baho beradi, ya‘ni bunda qo‘llanilgan hisob siyosati avvalgi yillardagi faoliyatni yuqori baholashga qaratiladi. Lekin so‘nggi yillarda xo‘jalik sub'ektining ish faoliyatini pasayishigaolib keladigan holatlar bo‘lishi mumkin. Demak bu siyosatni tanlashda extiyotkorlik talab etiladi, sababi, agressiv hisob siyosati auditorlar yoki investorlarni kelgusida biroz xavotirga solib qo‘yish extimolini vujudga keltiradi (menejerlar tomonidan faoliyati pasaygan sub'ekt haqida noto‘g‘ri ma'lumotlarni taqdim etishi xatari oshib boradi).

Shuningdek, xalqaroamaliyotda xo‘jalik sub'ektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni tuzishgaemas, balki foydani belgilangan qoidalar asosida boshqarish nuqtai nazardan ham hisob siyosati tanlanishi mumkin.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirishda iqtisodchi olimlar tomonidan hisob siyosatini tuzish va takomillashtirishda quyidagicha ta’riflar va yondoshuvlar berilgan:

A.K.Ibragimov tomonidan quyidagi fikrlar bildirib o‘tilgan: “Hisob siyosati – bu bank tomonidan operasiyalarni aks ettirish, nazoratni ta‘minlash hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun qabul qilingan aniq bir tamoyillar, asoslar, shartlar, qoidalar va amaliyotlardir” (Ibragimov, 2010).

Xorij iqtisodchi olimlaridan L.R.Smirnova o‘zining ilmiyasarida “Tijorat banklarning hisob siyosatida hisobning muhim variantlarini har xil operasiyalarda to‘g‘ri qulay bo‘lishi kerak shuningdek, tijorat banklarning hisob siyosatini shakllantirishda uzviy bog‘liq soliqlarni rejallashtirish va baholay bilishdir” deya ta’riflaydi (Smirnova, 2005).

V.P.Astaxov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida quyidagi uchta qisimgaajratgan holda hisob siyosati ko‘rilgan:

- buxgalteriya hisobining metodikasi hisob ob'ektlarni tan olish, o'lchash va hisob raqamlardaaks ettirishning tanlab olingan usullarini ifodalovchi holatlarni ko'rsatishni, metodologik jihatlarni balans va hisobotning boshqa shakllarning har bir elementi bo'yicha ifodalash;

- buxgalteriya hisobini yuritish texnikasi, bunda buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan ishchi schyotlar rejasini, hisob registrlarini schyotlarga biriktirilishini, hujjatlar shakllarining albomini, inventarizasiyani o'tkazish muddatlari va tartibini, zamonaviy kompyuterlar va boshqa tashkiliy texnikasi vositalarni, ularni qo'llash uchun zarur bo'lgan klassifikator va kodifikatorlarni kiritish;

- buxgalteriya hisobini tashkil qilish buxgalteriya ishini tanlab olingen tashkiliy shaklini, hisob xodimlari mehnatini tashkil qilish usulini, funksional majburiyatlarni buxgalterlar o'rtaida taqsimlashni tanlangan variantini, hujjatlar aylanishining tashkil qilinishini, bosh buxgalterni tayinlanishi, huquqlari va majburiyatlarini ko'rsatish (Astaxov, 2018).

Tadqiqot metadalogiyasi

Tadqiqot ishini amalga oshirilishi jarayonidaadabiyotlar sharhi to'liq tahlil etilgan holda, ulardagi jahon va maxalliy iqtisodchi olimlarning tijorat baklarida hisob siyosati, uning axamiyati va zaruriyati, uni MHXS talablariga muvofiqlashtirishga bergan fikr va qarashlari atroflichao'rganildi, shuningdek, ushbu fikrlargaasoslangan yo'nalishlar, jumladan "Kapitalbank" ATB da hisob siyosatini shakllantirishdagi asosiy tamoyillar va qoidalar belgilandi hamda tadqiqot yo'nalishi sifatida tadqiqot paradigmasi miqdoriy, ob'ktiv va ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayoni banklarning moliyaviy nazoratini, hisobga olish va statistik bilimlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayonlar orqali banklar samaradorligini oshirishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Respublikamizda faoliyat yuritayotgan yirik banklardan biri "Kapitalbank" ATB tanlab olingen.

"Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki O'zbekistondagi birinchi xususiy tijorat banklaridan biridir. 2001-yil aprel oyidan boshlab Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasini asosida muvaffaqiyatli faolyat yurita boshladi. 2004-yilda "Aviabank" (Toshkent sh.) aksiyadorlik tijorat banki bilan birlashgandan so'ng, Bank aksiyadorlik tijorat banki sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazildi. 2008-yil dekabr oyida Bank o'zining to'liq - "Kapitalbank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki nomi bilan yangi tahrirdagi Nizomni ro'yxatdan o'tkazdi. Bank Markaziy bankning 2014-yil 29-dekabrdagi 69-sonli bank operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha litsenziyasiga, shuningdek, 2014-yil 29-avgustdaggi 64-sonli chet el valyutasida operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bosh litsenziyasiga ega.

Tashkil etilganidan beri Bank yuqori sur'atlarda rivojlanib, korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida ham, chakana savdo segmentida ham yuqori o'sishni namoyish etdi.

Vaqt o'tishi bilan innovatsiyalarning qat'iy ro'yxati bankka yangi texnologiyalar hisobiga mahalliy bozorda yetakchi o'rinni egallahsga imkon berdi, bu ko'plab mijozlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish, xalqaro miqyosda tan olinishga va mamlakatdagi eng ishonchli va moliyaviy barqaror banklardan biri sifatida obro'-e'tibor qozonishga sabab bo'ldi.

Biz hozirda MHXSda tuzilgan hisobotlarni tahlil qilish uchun "Kapitalbank" ATB 2023-

yil uchun MHXS – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘zining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini ko’rib chiqamiz. Bank faoliyatining o‘tgan yildagi natijalari daromadlar va aktivlarning ma’lum darajada o’sganligi, shuningdek, boshqa asosiy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatmoqda.

2023 yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatning eng yirik xususiy banklaridan biri sof foyda va kredit portfelini deyarli 2 baravar — mos ravishda 77% va 80%ga oshirdi. Shu bilan birga, bank muammoli kreditlar ulushini 1,65% gacha kamaytirib, kredit portfelingin sifatini yaxshiladi.

Bugungi kunda mamlakatning 1,9 milliondan ortiq aholisi va 64 ming tadbirkor va kompaniyalar Kapitalbankga o‘z moliyaviy farovonligi va biznesini rivojlantirishni ishonishadi.

— o‘tgan yil davomida jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari hajmi 34%ga o‘sdi.

Bankning 2023 yildagi sof foydasi 1 673,6 mlrd. so‘mni, bankning kredit portfeli esa 29 749 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Jismoniy va yuridik shaxslarning jami depozitlari 33 592 mlrd. so‘mga yetdi. Kapitalbankning o‘z kapitalining rentabelligi 50,8%ni tashkil etdi, taqqoslash uchun, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 49,3%ni tashkil etgan edi.

— O‘tgan yil davomida biz bir vaqtning o‘zida ham shaxsiy, ham mamlakatning butun bank sektori doirasida bir nechta rekordlarni o‘rnatdik, — deydi «Kapitalbank» ATB boshqaruviraisi Kirill Mayevskiy. — Biz uchun asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni barqaror ushlab turish va biznes va xususiy mijozlar uchun ishchonchli hamkor bo‘lib qolish muhimdir. Hisobot raqamlari ortida mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligini oshirish, yangi mahsulotlar va raqamli bank servislarni ishga tushirish bo‘yicha ulkan ishlar turibdi. Va biz o‘zbekistonliklarga farovonlikni oshirish uchun qulay va tushunarli vositalarni taklif qilishda davom etamiz.

Bugungi kunda butun mamlakat bo‘ylab Kapital bankning 95 ta filiali va 1150 dan ortiq bankomatlari ishlaydi. 2023 yilda bank tadbirkorlar uchun yangi servislarni ishga tushirdi: Uzum Business onlaysn-banki, bank ofisiga (Toshkent shahrida) tashrif buyurmasdan hisobraqamini ochish, yagona aloqa markazi, maxsus texnika sotib olish uchun kreditlar, shuningdek, jismoniy shaxslar uchun mavjud bo‘lgan onlaysn servislari ro‘yxatini kengaytirdi

— masalan, siz kredit to‘lovini bank saytida yoki ilovasida amalga oshirishingiz mumkin.

Bugungi kunda “Kapitalbank”da 3000 dan ortiq xodim mehnat qiladi va mutaxassislarining o‘sishiga ko‘maklashish maqsadida bankda mavjud xodimlarning malakasini oshirish dasturi, shuningdek, talabalar va yosh mutaxassislar uchun amaliyot o‘tash dasturi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga (Xalqaro moliyaviy hisobotlar standarti - IFRS) muvofiq tahlil qilish, banklarning moliyaviy holatini baholash va ularning faoliyatini yaxshilash uchun muhimdir.

XULOSA

Tijorat banklarida MHXS (Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari) natijalarini tahlil qilish va unitakomillashtirish tadqiqotining asosiy ilmiy va amaliy yangiliklari va natijalari quyidagilar:

Ilmiy Yangiliklar

1. Nazariy Asoslar:

o Tadqiqot davomida MHXS ga o'tishjarayoni, xalqaro tajribalar va metodologiyalar asosida chuqur nazariy tahlil olib boriladi. Bu banklarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashdagi nazariy asoslarni mustahkamlashga yordam beradi.

2. Yangi Modellar:

o Tijorat banklarida MHXS ga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish uchun yangi modellar ishlab chiqiladi. Bu modellar banklarning o'ziga xos xususiyatlarga moslashtirilgan bo'lishi mumkin.

3. Tahlil Metodologiyasi:

o MHXS bo'yicha hisobotlarni tahlil qilish uchun yangi metodologiyalar ishlab chiqilishi, bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Amaliy Yangiliklar

1. Amaliy Tavsiyalar:

o Tadqiqot jarayonida banklarga MHXSga o'tish va hisobotlarni tayyorlashda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tavsiyalar banklarning moliyaviy shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Axborot Texnologiyalarining Integratsiyasi:

o Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qanday qilib samarali qo'llash bo'yicha amaliy ko'rsatmalar beriladi. Bu banklar faoliyatini samarali yuritishga yordam beradi.

3. Ishchi Jarayonlarni Takomillashtirish:

o MHXSga o'tish jarayonida banklarning ichki ishchi jarayonlarini qanday takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Bu takliflar jarayonlarni soddallashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Natijalar

1. Hisobot Sifatining Oshishi:

o Tadqiqot natijasida MHXSga muvofiq hisobotlarning sifatini oshirishga erishiladi, bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarning aniq va shaffof bo'lishini ta'minlaydi.

2. Raqobatbardoshlikni Oshirish:

o Banklar MHXSga o'tish jarayoni orqali xalqaro moliyaviy bozorlar uchun raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlarini oshiradi. Bu investorlarga banklarga bo'lган ishonchini oshiradi.

3. O'zgarishlarga Tayyorlik:

o Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan tavsiyalar va metodologiyalar banklarni o'zgarishlarga tayyor qilishga yordam beradi, bu esa ularni global moliya tizimiga moslashtiradi.

Tijorat banklarida MHXS ni tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha tadqiqotning ilmiy va amaliy yangiliklari banklar uchun muhim strategic imkoniyatlar yaratadi. Ular moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini yaxshilash, shaffoflikni oshirish va global moliya bozorlarida raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Takliflar.

Banklarda hisob yuritish siyosatini tuzish tartibi buxgalteriya hisobi tizimida yangi

yo‘nalishlardan biri ekanligini inobatga olinadigan bo‘linsa, banklar amaliyotida ularni sifat va mazmunan bo‘yicha qo‘ylgan talablar yetarli darajada emasligini va hisobdagi o‘zgarishlarga mos ravishda tuzilmayotganligini kuzatish mumkin. Agar hisob siyosatini shakllantirishdagi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilsa, bu tizimida buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil qilish va samarali hisob siyosatini ishlab chiqish bevosita banklarning kredit berish imkoniyatlarini oshirishda, bo‘sh mablag‘larni banklarga ko‘proq jalb qilish hisobidan ularning investisiya jarayonidagi ishtirokini kengaytirish uchun zamin yaratadi deb hisoblaymiz.

Amaliy Yangiliklar

Amaliy Tavsiyalar:

o Tadqiqot jarayonida banklarga MHXS ga o‘tish va hisobotlarni tayyorlashda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tavsiyalar banklarning moliyaviy shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot Texnologiyalarining Integratsiyasi:

o Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashjarayonida axborottexnologiyalarini qanday qilib samarali qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beriladi. Bu banklar faoliyatini samarali yuritishga yordam beradi.

IshchiJarayonlarniTakomillashtirish:

o MHXSga o‘tish jarayonida banklarning ichki ishchi jarayonlarini qanday takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Bu takliflar jarayonlarni soddalashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Tijorat banklarida MHXS (Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari) natijalarini tahlil qilish va unitakomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalarida keltirilgan asosiy tavsiyalar va takliflar quyidagilardan iborat:

o 1. Tizimni Yangilash va Integratsiya

o Axborot Texnologiyalarini Modernizatsiya: Banklar uchun mavjud hisob tizimlarini yangilash va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish zarur. Bu hisobotlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish va ma'lumotlarning ishonchlilagini oshirishga yordam beradi.

o 2. Malaka Oshirish Dasturlari

o Xodimlarni O‘qitish: Bank xodimlari uchun MHXS va moliyaviy hisobotlar tayyorlash jarayonlari bo‘yicha muntazam o‘quv dasturlarini tashkil etish. Bu xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshiradi.

o 3. Ichki Jarayonlarni Takomillashtirish

o Hisob-kitob Jarayonlarini Soddalashtirish: Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonidagi ichki jarayonlarni tahlil qilib, ularni soddalashtirish va optimallashtirishga e’tibor berish. Bu jarayonlar samaradorligini oshiradi.

o 4. Monitoring va Baholash

o Natijalarni Monitoring Qilish: MHXS ga muvofiq hisobotlarni tayyorlash jarayonini muntazam ravishda monitoring qilish va natijalarni baholash. Bu, hisobotlarning sifatini oshirishga yordam beradi.

o 5. Xalqaro Tajribalarni O‘rganish

o Benchmarking: Boshqa davlatlardagi muvaffaqiyatli tajribalarni o‘rganish va o‘zbanklari faoliyatiga mos ravishda qo‘llash. Bu, xalqaro standartlarga muvofiq rivojlanish uchun zarur.

о 6. Audit Jarayonlarini Mustahkamlash

о Ichki va Tashqi Auditni Rivojlantirish: Hisobotlarning sifatini ta'minlash uchun ichki va tashqi audit jarayonlarini yanada kuchaytirish zarur. Bu moliyaviy ma'lumotlarning ishonchlilagini oshiradi.

о 7. Investitsiyava Resurslarni Jalb Qilish

о Resurslarni Moliya Boshqaruvi: Banklar o'zinvestitsiya va moliyaviy resurslarini to‘g‘ri boshqarishi, shu jumladan, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritishi kerak.

о 8. Strategik Rejalahstirish

о Raqobatbardosh Strategiyalarni Ishlab Chiqish: MHXSga muvofiq hisobotlarni tayyorlash jarayonini raqobatbardosh strategiyalar bilan bog‘lash. Bu banklarning bozor sharoitlariga moslashish imkoniyatlarini oshiradi.

Ushbu tavsiyalar va takliflar tijorat banklarida MHXSni joriy etish va takomillashtirish jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Natijada, banklar moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishi, shaffofligini ta'minlashi va xalqaro bozorlar bilan raqobatbardoshligini kuchaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Astaxov 2018, Бухгалтерский (финансовый) учет в 2 ч. Ч. 1 : учебник для академического бакалавриата / В. П. Астахов. — 12-е изд., перераб. и доп. — Москва: Юрайт, 2018. - 536 б.
2. Ibragimov A.K 2010, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Moliya. - 2010, 272 b.
3. Ibragimov A.K 2016. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. BMA «Moliya», 2016 y. -370 b.
4. Mirziyoev Sh.M 2017. “Taqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” . Toshkent-O‘zbekiston-2017, - 66 b.
5. Murojaatnama 2020. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
6. <http://www.mf.uz>.
7. <http://www.lex.uz>.